



FARG'ONA VILOYATI OLTARIQ TUMAN HOKIMLIGINING YIG'ILISH BAYONI

263/8 -son

“ 06 ” 08 2025-yil



“TASDIQLAYMAN”

Oltariq tuman hokimi

Sh.Turdaliyev

08 2025-yil

Oltariq tuman hokimligida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI

Raislik qiluvchi

Sh.Turdaliyev- tuman hokimi

Ishtirok etuvchilar

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi direktor o'rinbosari U.Mavlyanov, Xalq deputatlari viloyat Kengashi vakillari, tuman hokimining o'rinbosarlari, huquqni muxofaza qiluvchi organlar raxbarlari, tumandagi korxona va tashkilot raxbarlari

KUN TARTIBI

1. "Oltariq tumanini korrupsiyadan holi xududga aylantirish" yuzasidan tuzilgan yo'l xarita ijrosi.

Yig'ilishni tuman hokimi Sh.Turdaliyev ochdi va olib bordi.

Joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurash milliy Kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Davlatimiz Rahbari tomonidan senatorlar va deputatlarga mamlakatimizning kiriminogen vaziyati og'ir bo'lgan barcha xududlarga, xususan mahallalarga chiqqan holda vaziyatni barqarorlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

2025-yilning 1-may kuni tuman hokimligi majlislar zalida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbayeva boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning sayyor majlisi bo'lib o'tgan edi. Ushbu majlis bayoniga ko'ra "Oltiariq tumanini korrupsiyadan holi xududga aylantirish" yuzasidan yo'l xaritasi tasdiqlanib ijroga qaratilganligini ta'kidladi. Mazkur yo'l xaritasi 32 banddan iborat bo'lib joriy yilning o'tgan davri mobaynida yo'l xaritasi ijrosi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilganligini e'tirof etilgan.

Shundan so'ng tuman hokimi so'zni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi direktor o'rinbosari U.Mavlyanovga berdi. U o'z so'zida quyidagi masalalarga to'xtalib o'tdi.

Jumladan, yo'l xaritasining avgust oyiga qadar bajarilishi nazarda tutilgan bandlari ijrosi yaxshi ta'minlanganligi,

Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining maqolalari bosma nashrlarda chop etilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ham aholiga yetkazilganligi;

Oltiariq tumanidagi 3 ta profesional ta'lim muassasalarida "Yoshlar korrupsiyaga qarshi" deb nomlangan talabalar klubi tashkil etilib, klubning Nizomi va ish-rejasi tasdiqlanganligi;

Adliya boshqarmasi tomonidan tayyorlangan **14 hildagi** korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ma'ruza matnlari, slaydlar, infografikalar va boshqa innovatsion axborot-targ'ibot materiallari davlat idoralari va tashkilotlariga foydalanish uchun tarqatilganligi;

Tuman hokimligi va Adliya bo'limi tomonidan "Korrupsiyaga qarshi birga kurashamiz", "Korrupsiya - jamiyatni yemiradi", "Korrupsiya - salbiy illat", "Pora - eng yomon chora" kabi shiorlar ostida tayyorlangan bannerlar aholi gavjum joylarga o'rnatilgan. "Ortiqcha hashamat va dabdababozlikning oldini olish, to'y va marosimlarni o'tkazishda ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik" mavzusida targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilgan. Tumanda haftaning har juma kuni Korrupsiyaga qarshi kurash kuni deb e'lon qilinib, joylarda seminarlar tashkil etilganligi;

Xalq deputatlari tuman Kengashlarining sessiyalari ijtimoiy tarmoqda onlayn to'g'ridan to'g'ri translyatsiya qilingan va ushbu sessiyalarda tuman prokurori, Ichki ishlar bo'limi boshlig'i, tuman hokimining tumanda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan ishlari yuzasidan xisobot va axborotlari eshutilganligi;

Oltiariq tuman hokimligining rasmiy veb-saytida alohida "Korrupsiyaga qarshi kurash" bo'limi yaratilgan hamda ushbu bo'limda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va Qonunchilik xujjatlari joylab borilgan. Tuman hokimligi veb saytida bo'sh ish o'rinlari haqida e'lonlar joylanganligi;

Tumandagi jami 46 ta umumta'lim maktablarida 5 yildan ortiq faoliyat yuritib kelayotgan 29 nafar rahbar xodimlar boshqa maktablarga rotatsiya qilingan. Shuningdek, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 44 ta DMTT

direktorlarining 25 nafari rotatsiya qilingan. Oltiariq tumanida onlayn xizmatlar soni ko'paytirilgan va ular turli sohalarni qamrab olganligi;

Tuman tibbiyot birlashmasi va uning tasarrufidagi muassasalarida 2023-2025 yilning iyun oyigacha bo'lgan davrda ajratilgan mablag'larning qonuniyligi yuzasidan tanlanma usulida o'rganish o'tkazilgan. Tuman Adliya bo'limi va Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati tashabbusi bilan aholi orasidan Korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilganligi;

Axborot xizmati mavjud bo'lmagan hududdagi tashkilot, muassasa va korxonalari shtat birligi doirasida axborot xizmati faoliyatini yo'lga qo'yilganligi;

Oltiariq tuman hokimligi binosining 1-qavatida fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida **"Ochiq va shaffof hokimiyat"** loyihasi doirasida xodimlar uchun umumiy ish zallari (*open space*) va zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlari bilan jihozlanganligi bo'yicha gapirib o'tdi.

Shuningdek, u o'z so'zida yo'l qo'yilgan bir qator kamchiliklarga ham to'xtaldi.

Xususan, yo'l haritasini ayrim bandlarini to'liq bajarilmaganligiga alohida to'xtalib, ma'sullardan tushuntirishlar oldi hamda kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'z tavsiyalarini berib o'tdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Oltiariq tumanini korrupsiyadan holi hududga aylantirish bo'yicha tuzilgan yo'l haritasi ijrosi yuzasidan **Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi direktori o'rinbosari U.Mavlyanovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yo'l haritasining 14, 22-bandlari to'liq bajarilmaganligi va boshqa bandlar ijrosini tashkillashda ayrim kamchiliklar aniqlanganligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (I.Gafurov), tuman prokurori R.Tillayev, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining tuman bo'limi (R.Luqmonov), tuman Ichki ishlar bo'limi (I.Sotvoldiyev), tuman Adliya bo'limi(A. Yuldashev)lar va boshqa ma'sul bo'lim va tashkilot rahbarlariga:

-yo'l haritasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini qa'tiy nazoratga olish;

-yo'l haritasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida rasmiy buyruq bilan ma'sul hodim biriktirish va 2 kun muddatda tuman hokimligiga taqdim etish;

-korrupsiyaviy xavflar yuqori bo'lgan tashkilotlar va lavozimlarni ayniqsa sog'liqni saqlash, bandlik, moliya, soliq, iqtisod, ijtimoiy xizmat, ta'lim, qurilish, kadastr va bank sohalarida maxsus o'quv kurslari, seminarlar tashkil etish, sohadagi

tajribali hodimlarning fikrlaridan kelib chiqqan holda aniq takliflar ishlab chiqish hamda hududiy Kengashga taqdim etish;

-2024-2025 yillarda o'tkazilgan davlat xaridlari, davlat mulkini xususiylashtirish, davlat-xususiy sheriklik shartnomalarini tanlov asosida o'rganish, o'rganishlarga keng jamoatchilik hususan, deputatlar, fuqarlarni o'zini o'z boshqarish organlari vakillari, OAV vakillarini jalb etish;

-manfaatlar to'qnashuvini oldini olish yuzasidan davlat haridlarini amalga oshirishda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash;

-tibbiyot va ta'lim sohasiga ajratilgan byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi, kapital ta'mirlash ishlari, davlat xaridlari va byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini reja grafik tuzgan holda tekshirishlar o'tkazish;

-amalga oshirilgan ishlar bo'yicha jamoatchilikka muntazam axborot berib borish;

bunda;

-foydalanuvchilari 10 mingdan ko'proq bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan, respublikaga mashhur blogerlarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalaridan hamda respublika va viloyat darajasidagi tele va radio kanallaridan foydalanish

-haftaning har juma kuniga yo'l haritasi ijrosi yuzasidan tuman hokimligiga axborot kiritib borish vazifalar yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (A.Xonkeldiyev)ga:

-tuman hokimligi rasmiy veb-saytini faoliyatini belgilangan talablar asosida yuritilishini ta'minlash;

-tumandagi barcha davlat organlari va tashkilotlarida jamoatchilik bilan ishlash, ochiq ma'lumotlarni keng ommaga e'lon qilib borish bo'yicha ma'sul hodimlar ro'yxatini shakllantirish hamda adliya bo'limi bilan hamkorlikda ularni o'qitishni tashkil etish;

- tumandagi barcha davlat organlari va tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalarini tashkil qilish, ularni belgilangan talablar asosida yuritilishini ta'minlash choralarini ko'rish vazifalar belgilansin.

5. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayonnomani yozib boruvchi:



A.Yursunov